

HAVASXON SHOKIROVA

TA'LIMDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARNING  
O'RNI

МАЖБУРИЙ  
НУСХА

Toshkent  
Yangi asr avlodisi  
2013

81.2 Ÿ3-9- 90.ненес

**UO'K: 811.512.133**

**KBK: 81.2 Ÿ3 – 92.3**

**Sh-74**

**Shokirova, Havasxon**

Ta'linda innovatsion texnologiyalarning o'rni. Qo'llanma.  
/ Havasxon Shokirova. T.: Yangi asr avlod, 2013. – 20 b.

ISBN 978-9943-27-086-2

Yangi pedagogik texnologiyalar ta'lif samaradorligini  
oshirishda, o'zbek tilini takomillashtirishda, barkamol avlod  
tarbiyasida asosiy vositalardandir.

Filologiya fanlari nomzodi, Xalq ta'limi a'lochisi  
Havasxon Shokirovaning izlanishlari samarasi bo'lgan mazkur  
kitobchadan ta'lif jarayonida yangi uslubiy qo'llanma sifatida  
foydanish mumkin.

**UO'K: 811.512.133**

**KBK: 81.2 Ÿ3 – 92.3**

10 42091  
0 g1

ISBN 978-9943-27-086-2

© Havasxon Shokirova, «Ta'linda innovatsion texnologiya-  
larning o'rni. Yangi asr avlod», 2013-yil.

2015/184	Alisher Navoiy
A	nomidagi
10508	O'zbekiston MK

## **TA'LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARING O'RNI**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo'lida barkamol avlodning o'rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta'lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog'liq. Shu bois «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan maskuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'nnaviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat.

Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatini ko'rsatib beruvchi ilg'or, har tomonlama ilmiy – metodik jihatdan asoslab berilgan uslublarning – yangi pedagogik texnologiyalarning maqsadi – Respublikamizning ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh istiqbolli pedagog kadrlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan biliunlarini o'quvtarbiya jarayonida qo'llay olishga o'rgatish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat.

O'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ularidan unumli natija ola bilish pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab

etadi. O'zbek tili ta'limini takomillashtirishda ham pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyos. Bizga ma'lum bo'lgan, o'zlashtirilgan texnologiyalardan farqli ravishda izlanishlarimiz samarasi bo'lgan yangi usullarni taqdim etamiz:

1-usul: Har bir o'zbek tili, ya'ni ona tili darsi yangi biror bir mavzu asosida quriladi. Bu rejada berilgan mavzudan tashqari qo'shimcha mavzu bilan belgilanadi.

Masalan: «Haqiqat», «Yolg'on haqida», «Munofiqlik va uning alomatlari», «Sir», «Do'stlik nima?», «O'zimni yengaman», «Ta'sir qilish kuchi», «Istaklar va maqsadlar» kabi turli mavzular bilan darsning tashkiliy qismida bir oz suhabatlashib, o'quvchilar fikriga oydinlik kiritib olinadi hamda dars davomida tuzilgan gaplar, keltirilgan hikmatli o'gitlar, maqollar shu mavzuga yo'naltiriladi. Bu usul barcha sinflarda qo'llanilishi mumkin bo'lib, «Suhbatdosh» deb nomlanadi.

2-usul: «Olma terish» mashqi deb nomlanib, undan o'zbek tilining grammatikasida foydalanish maqsadli bo'ladi. Olma shakllari ortida o'zbek xalqi maqollarining yarmi yoziladi. O'quvchi maqolning yarmini olma shakli ortidan o'qib, uning davomini topib berishi kerak. Bundan tashqari o'sha gapning sodda yoki qo'shma gap ekanligi, sodda, qo'shma gapning qaysi turiga mansub ekanligini aytishi lozim. «Gapning maqsadga ko'ta turlari» mavzusida ham qo'llash mumkin. Bu bilan o'quvchi kutilmagan holatlarda o'zini tuta bilishi va topqirligi, qadriyatriyatlarimizga hamda o'zbek xalq og'zaki ijodiga hurmati ortadi. Birinchidan, ushbu usul yakka holda o'zaro qo'llanilishi mumkin. Ikkinchidan guruhlar ishi e'lon qilinib, «Kim ko'p olma terish?» misolida ham bajarilishi mumkin.

3-usul: «O'zingni yelpi» O'quvchilar shu usul bilan barcha o'tilgan mavzularni takrorlashlari va mustahkamlashlari mumkin.

Masalan: Bir o'quvchi taklif qilinib, unga yelpig'ich beriladi. O'quvchilar yoki boshqa guruh o'quvchilari tomonidan savollar beriladi. O'quvchi savolga tez javob berishi lozim. Javob berolmasa, yelpig'ich bilan o'zini yelpiydi. Agar yelpig'ichda o'zini yelpish esidan chiqsa, mag'lub bo'lib, o'yindan chiqadi. Javob berolmasa ham o'zini yelpisa keyingi savolni qabul qilishi mumkin bo'ladi. Shunday qilib, o'yin oxirida nechta savoldan nechta siga javob bergani hisoblanadi. Bu usul bilan o'quvchi ziyrak, dono, epchil, bilimli bo'lishga harakat qiladi. Hozirjavob bo'lishga intiladi. Xotirasi mustahkamlanadi.

4-usul: Klaster usuli ta'lim jarayonida ancha ma'lum va mashhur bo'lib, ushbu usul orqali ko'p mashqlarni bajarish mumkin. Klaster usulida «Kungaboqar» texnologiyasini ishlab chiqdim. Bunda bir nechta kungaboqarlar olinib, ularning orqasiga gaplar yoki so'zlar yoziladi. Qizig'i shundaki, kungaboqarlar yarimta bo'lib, gapning yarmi kungaboqarning yarmiga, qolgani boshqa qismiga yoziladi. Bir - biriga mos tushuvchi yarim kungaboqarlarni keltirganda gap ham butun holga kelishi (ya'ni mazmun, shakl muvofiqligida), kungaboqar ham to'liq shaklga kelishi lozim. Bu esa o'quvchida harakat tezligi, topqirlik, mantiqiy muvofiqlikni shakllantiradi. Estetik didini oshiradi. Ushbu usul 7-8-9-sinflarda morfologiya va sintaksisda qo'llansa, 5-6-sinflarda fonetika va leksikologiya bo`limlarida ham foydalananish mumkin.

5-usul: «Ko'zgu» deb nomlanib, guruh ishida o'z natijasini beradi.

Ikki guruhdan o'quvchilar navbatli bilan bir-birini ta'riflaydilar. 1- o'quvchi ikkinchi-o'quvchining ijobjiy




va salbiy xislatlarini so'zlaydi. Ikkinci-o'quvchi tinglab, gaplar tarkibidagi sifatlarni, ularning turlarini topib beradi. Mazkur usul nafaqat sifat so'z turkumi, balki ot yoki fe'l so'z turkumini o'rganishda ham qo'l keladi.

6-usul: Navbatdagi pedagogik texnologiya «Javoblar raqamlarda» deb nomlanadi. Albatta, bu usul ozroq tayyorgarlikni talab etadi. Sababi 4 yoki 5 gacha yozilgan raqamlar o'quvchilar qo'lida bo'lishi lozim. Ushbu usul ham o'quvchilar tezkorligi va hozir-javobligini shakllantiradi.

7-sinfda rejada berilganidek, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama mavzulari o'tiladi. O'qituvchi shartli ravishda ko'makchini - 1, bog'lovchini - 2, yuklamani - 3 deb belgilab oladi. O'qituvchi misollar keltirganda ularning tarkibida ko'makchi kelsa, o'quvchi 1 raqamini, bog'lovchili misol keltirsa 2 raqamini, yuklamali misol aytganda 3 raqamini ko'rsatishlari lozim. Raqamlarning to'g'ri ko'rsatilishi o'quvchilarning bilim darajasini belgilaydi. Ushbu usulni «So'z birikmasining birikish usullari» mavzusida moslashuv -1, boshqaruv -2 bitishuv- 3 misolida ham qo'llash yuqori natijani ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan interfaol usullar o'quvchi faoliyatini oshiradi. O'quvchilarni ushbu usullarda, umuman dars jarayonida partalarga joylashtirish ham asosiy o'ringa ega. O'quvchilar ko'pincha ona tili darslarida ko'ramizki, 3 guruhg'a bo'linib parta atrofida aylana shakllarida o'tqaziladi. Bunda ko'p o'quvchilar doskaga orqasini qilib o'tirishga va bir - birlarini doskadan to'sishga majbur bo'ladilar. Bunday usulni adabiyot yoki yozish kamroq qo'llanuvchi fanlarga tatbiq etish mumkin. Ona tili darslarida yozuv, husnixat kabi masalalar ham asosiy sanalishini unitmaslik kerak.

## **"SUPER LOTTO" TEXNOLOGIYASI**



Sinfdag'i barcha o'quvchilar lototron yordamida sharikchalar olib undagi raqamlar bo'yicha guruhlarga bolinadilar. Har bir guruhda 6 tadan o'quvchi bo'lishi lozim. Guruhlar soni 3 yoki 4 ta boladi. Har bir guruhda vatman qog'ozlar (ulardagi 6 ta aylana (uchburchak, to'rtburchak) shakllari kesib olingan va turli ranglarga bo'yalgan. Aylana shakllari to'rtburchak, uchburchak shaklida bo'lishi ham mumkin) beriladi:



O'quvchilar guruhlarga bo'linib, joylashib olishgach, o'qituvchi ularga o'tilgan mavzular yuzasidan savollar beradi. Qaysi o'quvchi javobni to'g'ri bersa, kesib olingan shaklni o'z joyiga qo'yib skotch bilan yopishtiradi. Savolga javob berolmasa, kesib olingan shaklni joyiga qo'ymaydi va ana shu joy ochiq va bo'sh qoladi. Shunday qilib o'quvchilar kuchli savollar bilan sinaladi. Ushbu texnologiya

kuchli ilmiy savollarga kuchli ilmiy javoblar talab qilishi va o'quvchi bilimlarini keskin oshirish bilan ajralib turadi. Kesib olingen shakl joyiga qo'yilmasa guruhdan necha o'quvchi to'g'ri javob bermagani kunday ravshan bo'ladi va har bir o'quvchi hamda guruh aniq baholanadi.

Ushbu usul so'ngida vatman qog'ozlar doskaga magnitlar yordamida yopishtiriladi. Guruhlar bir-birining ishlarini xolisona baholashlari mumkin. Bunda masalan, quyidagicha holat kuzatilishi mumkin:



Eslatma: berilgan savolga javob berolmagan o'quvchi shaklni joyiga qo'ymaydi. Lekin darsda hech qanday masala ochiq qolmasligi uchun o'z guruhidan yoki boshqa guruhdan bo'lgan o'quvchi aynan shu savolga o'tinli javob berib ball to'plashi mumkin.

Ushbu mashq kompyuter texnologiyasida qiziqarli va sifatli tashkillanishi mumkin.

### **“Yaproqlar raqsi”**

Dastlab o'quvchilar 4 yoki 6 guruhga bolinadilar. O'rta ga stol qo'yilib, unda rangli, xilma-xil katta-kichik yaproq shakllari joy olgan bo'ladi. Guruhdagi o'quvchilar ham yaproqlardan bittadan tanlab oladi. Tanlab olingen yaproqlar ortiga istalgan so'zni yozadi. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan savatchaga yuqoridan tashlaydilar. Yaproqlar har xil rangda,

har xil bo'lganligi uchun ajoyib ranglar jilosи va "Yaproqlar raqsi" hosil qiladi. Bu esa o'quvchilar ko'zini quvnatadi. Yozishdan charchagan ko'zlarga dam beradi. O'quvchilarning estetik didini oshiradi. Tabiatga mehr ortadi. O'quvchilar yana 6 tadan yaproq oladilar. Guruh o'quvchilari o'tasida nechta yaproq yig'ilgan bo'lsa, shuncha gap tuzish lozim bo'ladi. Yoki shu so'zlardan bog'lanishli matn tuzish og'zaki nutqni o'stirishga o'quvchi nutqining ravon, boy bo'lishiga xizmat qiladi. Guruhlarning qay darajada bajara olishi tekshiriladi. Guruhlar topqirlikni, hamjihatlikni oshiradi. Necha o'quvchi topshiriqni bajara olmaganligiga qarab guruhlarga baho beriladi.

### Piramida

Ushbu usulda chizilgan piramidaning shakli zarur bo'ladi. Agar bu multimedia yoki kompyuterda ko'rsatilsa maqsadga muvofiqdir. Piramida shakli o'quvchi uchun "Ilm mamlakati" ro'lini o'taydi. O'quvchilar bir necha guruhga bo'linadilar. Piramida "Ilm mamlakati" deb ko'rsatiladi. Guruhlarga topshiriq beriladi. Topshiriqlarni to'g'ri bajargan guruh yoki o'quvchi piramidaning pog'onalaridan bosqichma-bosqich yuqorilaydi. Eng yuqori pog'onaga ko'tarila olgan guruh yoki o'quvchi o'z bayrog'ini tukadi va g'olib bo'ladi.

Kompyuterda ishlanganda ham o'quvchi yoki guruh, o'z bayrog'ini piramidaga joylashtirib, "Guruh sardori" yoki "Dars sardori" etib tayinlanadi.

Ushbu usulda AKTdan keng foydaliniлади. O'quvchilar topshiriqni kompyuterda bajara oladilar. O'quvchilar yoki guruhlar o'tasida samaradorlikka intilish keskin oshadi.

## **Zanjir**

“Zanjir” usuli o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqining rivojlanishi uchun samarali omillardan biri bo’lib xizmat qiladi. Ushbu usulni butun sinf o’quvchilari bilan birqalikda bajarsa bo’ladi. Uni partama-partा yoki yonma-yon turib to’liq sinf o’quvchilari bilan bajarish mumkin, shunda “Zanjir” hosil qilinadi. Mazkur usul bilan bog’laishli matn, hikoya tuzishlari mumkin.

O’quvchilar estafeta sifatida bayroq, lenta yoki oddiy cho’pni bir-biriga berib boradilar. Qaysi o’quvchi topshiriqni bajara olmasa zanjir uzilgan hisoblanib, u o’yindan chiqadi. O’quvchilar “zanjirni ulab” yana davom etadilar. Ushbu usulni yakunlagan o’quvchilar joy-joylariga o’tiradilar, hosil qilingan matnni xotiralarida tiklab daftarlariга yozadilar. Daftarlarga yozilgan matnlarni to’g’ri, xatosiz va tushirib qoldirilmay yozilishi o’qituvchi tomonidan yoki guruahlarning, o’quvchilarning biri-birini tekshirishi, munosib baholashi bilan yakunlanadi.

## **“Aksini topping” usuli**

Mazkur usul tezlik bilan bajarilishi, o’quvchilarni topqir, zukko bo’lishga chorlashi hamda tilimizdagи zid ma’noli so’zlarni bilihga, farqlay olishga o’rgatishi bilan ajralib turadi. “Aksini topping” usuli kichik guruhlarga bo’lingan holda bir-biriga savol tariqasida berilib bajarilishi mumkin.

Usul quyidagicha: o’quvchilar guruhlarga bo’linib oladilar. 1-guruh o’quvchisi ikkinchi guruh o’quvchisiga qarab, jumladan “ega” desa ikkinchi guruh o’quvchisi “kesim” deyishi yoki “gap” desa “so’z” “chol” deb aytsa uning aksi “kampir”, “tun” deyilsa “kun” degan zid ma’noli so’zlarni aytmog’i lozim

bo'ladı. Ushbu usul mavzuni yaxshi o'zlashtirib olish uchun yaqindan yordam beradi. So'zlarning aksini topa olmagan o'quvchilar o'z guruhini orqaga tortadilar va past ball bilan baholanadilar. Albatta, g'olib bo'lishni istagan guruh o'quvchilari hamjihatlikni oshiradilar.

### **"Kabutardan xabar" usuli**

"Kabutardan xabar" usulida o'quvchilar ikki guruhgaga ajralib, ikki tarafga qarama-qarshi tarafga bir-birlariga qarab turib olishlari bilan boshlanadi. Bir tekisda saf tortgan o'quvchilar ularga raqib ikkinchi guruh sanaladi. Ushbu guruhlarni nomlash ham mumkin. O'quvchilar bu usulni bajarishda qog'ozdan yasalgan kabutardan foydalanadilar. Kabutarga topshiriq yoziladi yoki topshiriq yozilgan qog'ozcha joylashtiriladi. Raqib guruh tomonga kabutar uchiriladi. Kabutar kimga borib tushsa, o'sha o'quvchi topshiriqnini bajarishi kerak. Kabutardan xabar olgan o'quvchi u yerda yozilgan topshiriqnini bajara olmasa, o'sha guruhdan boshqa o'quvchi bajarishi mumkin. Topshiriqnini bajara olmagan o'quvchi o'z xato va kamchiliklarini tuzatishga harakat qiladi. Shunday qilib , guruhlar bir-biriga topshiriq yoki savol berish orqali bir-birlarini kuchlarini sinab oladilar. Savol tuzishni ham yoki topshiriq berishni o'rganadilar. Guruhlardan eng bilimli o'quvchilar saralanadilar. Mazkur usul o'quvchilarni kabutar yasashga, qo'l mehnati bilan nimanidir hosil qilishga undaydi. Bu esa bolalarni kichik yoshdan boshlab mehnatsevar va topqir qilib tarbiyalaydi.

## **“Muzqaymoq”**

Ushbu usul “Muzqaymoq” deb nomlanadi. Bolalikda kim ham muzqaymoqni sevmagan, deysiz. Uni nomini eshitgan bolalar mazkur usul haqida tezroq bilishga oshiqadilar.

Usul quyidagicha tushuntiriladi:

Muzqaymoq surati tushirilgan vatman qog'ozga 9 ta bo'sh katakchalar chizilgan bo'lib, o'quvchilar ushbu muzqaymoq so'ziga mos so'zlarni topib qo'yishlari lozim bo'ladi. Asosiysi shundaki, yozilishi kerak bo'lgan so'zlar 9 ta harfdan iborat bo'lib, muzqaymoq so'ziga qofiyadosh so'zlar topib yozilishi shart. Bunda o'quvchilar qo'shma so'zlar va juft so'zlar hosil qilish malakalarini o'stiradilar. Ushbu usul o'quvchilar topqirligi, zukkoligi va ijodkorligini oshiradi. Hosil qilgan topilma so'zlar quyidagicha bo'lishi mumkin: “Muzqaymoq”, “Ko'zmunchoq”, “Choy – qaynoq”, “Ko'z – chaqnoq”, “Bor – qalpoq”, “Men – oppoq”, “Sen – jarroh”, “So'z – chaqmoq”.

## **“Grammatika bozori”**

“Grammatika bozori” usulida o'qituvchi turli xil mevalar shakllaridan yoki rang-barang rangli shakllardan foydalanib, ularning ortiga grammatik tushunchalar, masalan, to'ldiruvch, hol, gap, so'z birikmasi va shu kabilar yoziladi. O'quvchilar ulardan qay birini tanlab olsa, unga doir tushunchalarni bayon etmog'i lozim. Ushbu usulni yakka yoki guruh bo'lib bajarish mumkin.

Bunda o'quvchining topqirligi, zukkoligi oshadi. So'z boyligi takomillashadi. Nutqi ravonlashadi. Bilim, ko'nikma va malakasi ortadi, darsdan-darsga shakllanib boradi.

## **DARS JARAYONIDA HARAKATLI METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI**

Dars – ta'lilda eng muqaddas jarayon. O'qituvchi va o'quvchilar uchun bu birdek ma'suliyatli va muhim bo'lishi lozim. Oquvchining dars jarayonida o'tgan vaqtini hech kim qaytarib bera olmaydi. O'qituvchi o'quvchinig har bir o'tgan oniga javobgar. Shu sabab "dars muqaddas" deya ta'riflaymiz. Bugungi kun talabiga ko'ra o'qituvchi dars jarayonini mohirlik bilan tashkillashi, vaziyatdan kelib chiqib, dasturga ko'ra osonlashtirishi, oddiyolashtirishi yoki murakkab-lashtirishi, o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir etishi, ular sog'ligiga e'tibor berishi darkor.

Har bir darsning samarali, unumli va biz kutgan-dek natija berishi uchun har bir dars diqqat markazida o'quvchi turushini unutmasligimiz kerak, albatta.

Dars jadvalida, istaymizmi-yo'qmi, 5-6 soatlarda ham aniq fanlar va turli fanlar bo'yicha murakkablashgan mavzularga duch kelishimiz mumkin. Yoki o'quvchilar shunday ruhiyatdaki, ular kayfiyatini ko'tarib undan keyin darsga kirishish, mavzularni interfaol harakatli mashqlar yordamida singdirish unumli bo'ladi.

Bunday jarayonda berilgan bilim o'quvchi dunyo qarashini shakllantirishga xizmat qilishi bilan birga bilimini oshirib, sog'ligini ham mustahkamlaydi.

Ma'lumki, harakatli mashqlar ta'liming har bir turida maktabgacha ta'lidan tortib umumta'-limgacha keng qo'llaniladi. Bunday harakatli metod-larning sinab ko'rilgan bir necha yangi turlarini keltirib o'tamiz.

## **“Poyezd” mashqi**

Asosiy qism: O‘quvchilarga mashq haqida ma'lumot berish.

Mashqning tavsifi: o‘quvchilar partadan tashqari-ga chiqib, bir qator bo‘lib tiziladilar.

Keyingi qadam: o‘quvchilar poyezdga o‘xshab birin-ketin partalar orasidagi yo‘laklardan yuradilar. O‘qituvchi ular “poyezd bo‘lib” yurayotganlarida “poyez bo‘lib yuramiz, poyez bo‘lib yuramiz, uch burchakka bo‘linamiz” deganda 5 tadan turib olishlari lozim bo‘ladi. Ortib qolgan yoki burchaklarga bo‘lina olmagan o‘quvchilar o‘z joylariga o‘tiradilar.

Ushbu harakatli mashq o‘quvchilar miya faoliyatini yaxshilaydi, kayfiyatini ko‘taradi. Ishchanlik va hamjihatlikni oshiradi.

## **“O‘zbekiston mevalari” mashqi**

O‘quvchilar dastlab o‘tirgan o‘rinlarida O‘zbekiston mevalarining o‘zlariga yoqqan 4 yoki 5 xilini sanab chiqadilar. Namuna quyidagicha: olma, anor, nok, behi.

Shundan so‘ng mashq haqida ma'lumot beriladi.

Mashqning tavsifi: o‘quvchilar mevalarning nomlarini aytib guruhlarga bo‘linib olishgach, bir-birlariga qarab aylana shaklida turib oladilar. Bunda turli mevalar nomlarini olgan o‘quvchilarning aralashib turib olishiga va ularning oralari zinch bo‘lmashligiga ahamiyat bermoq lozim. O‘qituvchi “olmalar” deyishi bilan olma nomini olgan o‘quvchilar joylarini o‘zgartirishlari, “anor” so‘zi aytilganda barcha, “anorlar” joylarini o‘zgartirib bo‘sh o‘rinlarni egallashlari darkor. Qaysi o‘quvchi joy topa olmasa, mashqdan chiqadi.

### **“Koptok” mashqi**

Asosiy qism: o'quvchilar ushbu mashqni bajarishda ziyraklik, serharakatlik, topqirlik qanchalik ahamiyatga egaligi haqida tushunadilar. Mashq haqida ma'lumot oldilar.

Mashqning tavsifi: o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, bir-birlariga savol berib, koptok otadilar. Koptokni ilib olgan o'quvchi savolga javob berdi. O'zi ham savol berib, koptokni boshqa o'quvchiga otadi. Berilayotgan savollar mavzuga doir yoki mavzudan tashqaridan chalg'ituvchi savollar berilishi mumkin. Muhimi, savollar qisqa, aniq, lo'nda bo'lishi lozim.

### **“Xo‘p” mashqi**

Asosiy qism: o'quvchilar ushbu mashqni bajarishda o'z partalarida doimgidek o'tirishlari mumkinligini tushunishlari kerak. Ushbu mashqda fanlararo bog'lanish mavjud bo'lib, o'quvchilar tezlik bilan bajarishlari, diqqatni jamlash talab etiladi.

Mashqning tavsifi: o'quvchilar birin-ketin 1, 2, 3, 4 kabi sonlarni sanab ketadilar, ammo har safar beshlik sonlarga kelganda raqam o'tniga “xo‘p” so'zini aytish lozim. Masalan: 1, 2, 3, 4, “xo‘p” 6, 7, 8, 9 “xo‘p” kabi.

Mazkur o'yinda har bir beshlikda “xo‘p” so'zini aytmasdan 5, 10, 15, 20, 25, 30 kabi sonlarni aytib yuborganlar o'yindan chiqadi. Ushbu mashqda butun sinf qatnashadi.

### **“Bayroqcha kimda?”**

Asosiy qism: o'quvchilar mashqni bajarilishini tushunib olishlari, vaqtadan unumli foydalanishni o'rGANISHLARI darkor.

Mashqning tavsifi: o'quvchilar partama-parto turgan holda ushbu mashqni bajarishlari mumkin. Guruhlarga, zvenolarga bo'linib olib borish, musobaqa sifatida uyushtirish mumkin. Birinchi o'quvchiga bayroqcha beriladi. U topshiriqni bajarib, ikkinchisiga topshiradi. Topshiriq maqol, mavzuga oid atamalarni aytib berishdan iborat bo'lishi, o'tilgan mavzularga doir so'z va tushunchalarni takrorlash bo'lishi mumkin. Aytolmagan o'quvchi mashqdan chiqadi.

"Bayroqcha" o'quvchilar qo'lidan qo'liga o'tadi. Topshiriqni bajarolmay qolgan guruh bayroqchani narigi guruhga beradi.

### **"Estafeta" mashqi**

Ushbu mashqlar musobaqa sifatida xattaxtaga so'z yozish, she'r aytish misolida yoki parta boshidan oxirigacha koptok yoki g'ildirak yumalatish sifatida bajarilishi mumkin.

Mazkur mashqlar qiziqarli, harakatli bo'lib, mashq boshidan oxirigacha o'quvchilar bir-biri bilan inoq, hamjihat bo'ladilar.

Ko'rib o'tganimizdek, harakatli metodlar o'quvchinig mavzuni o'zlashtirishiga, o'qituvchi kutgan natijaga – sifat va samaradorlikni oshiruvchi omil vazifasini o'taydi. Dars jarayonida harakatli metodlar o'quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

- Kayfiyatni ko'taradi;
- Miya faoliyatini rivojlantiradi;
- Qon aylanishini yaxshilaydi;
- Yangilikni tez ilg'aydi;
- Hamjihatlik oshadi;
- Xotira mustahkamlanadi;
- Topqirlik, sezgirlik vujudga keladi;
- Samimiyat hosil bo'ladi;
- Charchoq yo'qoladi;

· Tinglash madaniyati yuzaga keladi.  
Xullas, ko'rinadiki, mazkur metodlar o'qituvchi va o'quvchi uchun maroqli bo'lib, darslarning rangba rang bo'lishini ta'minlaydi.

## **DARS JARAYONIDA AKTDAN FOYDALANISH**

Til ta'limida **AKT** – axborot kommunikatsion texnologiyadan foydalanish o'quvchining mustaqil mushohada yuritishiga, so'z boyligini oshirishiga, xotirasini mustahkamlashga, to'g'ri yozish ko'nikmasining shakllanishiga, tasavvurlarining kengayishiga, tezkorlik bilan topshiriqlarni bajarishga va vaqtidan unumli foydalanishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida kompyuter orqali o'quvchilar javobini, faolligini tekshirib olish eng samarali usullardandir. Dars jarayonida test, krossvord, skanvord, rebus, chaynvord kriptogramma kabi vositalardan foydalanib, o'quvchilarni faollash-tirish mumkin. Bunda testlar yoki rebuslar kompyuterga kiritilib, o'quvchilarga havola etiladi. Bunda testni, rebusni bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilar yechishi, krossvordga javob topishi mumkin. Bu esa o'quvchining mustaqil ishlashiga ko'mak beradi.

Har bir o'qitivchi o'zining fani bo'yicha Microsoft Exsel 2007 elektron jadval muharriri yordamida turli xil nazorat testlari, rang-barang krossvordlar, grafiklar yaratishlari mumkin.

Shu o'rinda bunday o'qitish metodida ovozli animatsion vositalardan foydalanish ham o'quvchining mavzuni to'g'ri tushinishiga, o'z-o'zini tekshirishga, xatolarini to'g'ri anglashga o'rgatadi.

Jumladan, amalda bajarish yoki ko'rish qiyin bo'lgan jarayonlarni kompyuter vositasida namoyish

Alisher Navoiy

2019/14	nomidagi
A	
10508	O'zbekiston MK

etish va buni animatsiyali slaydlar yordamida o'quvchilar ongiga yetkazish yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari darslarda va darsdan tashqari tadbirdorda,to'garaklarda veb-kamera orqali mash-hur kishilarni-olim,shoir-u yozuvchilarni taklif qilib, ularni o'quvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kiritish mumkin.

Shuningdek, darslarda internet tarmog'idan keng foydalanish undagi, ma'lumotlar bazasidan istalgancha yangi ma'lumot yig'ish, ularni umumlashtirish va tahlil qilish hamda yangi ma'lumotlar bazasini tashkil etish o'quvchilar uchun darsning maroqli bo'lishini ta'minlabgina qolmay, ularga turli imkoniyatlar yaratadi.

Kompyuter dasturlari va internetdan foydalanib muammoli darslar yoki muammoli vaziyatlar hosil qilish, ularni kichik guruhlarda yoki individual tahlil qilish, muammoning yechimini topish, virtual sayohat darslarini uyushtirish o'quvchilar faolligini oshiradi.

Bunday darslar o'quvchilar xotirasida bir umr o'chmas iz qoldirib, ta'lim sifatining keskin oshishiga, fanga bo'lgan ishtiyoqining o'sishiga xizmat qiladi.

## XULOSA

Pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimida bugungu kunda keng tus olgan va o'z natijasini ko'rsatayotgan usullardandir. Pedagogik texnologiyalarning pedagogik mahorat bilan o'rgatilishi yangi usullarning yosh avlod tarbiyasining komil inson bo'lib yetishishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Bu yolda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati quyidagicha:

- O'quvchi yoki talaba harakatlarini muayyan tartibga soladi;
- Erkin fikrlashni o'rganadi;

- Fanga bo'lgan ixlosi va ishtiyoqi oshadi;
- Yashirin iqtidori namoyon bo'ladi;
- Ijodkorligi ortadi;
- Ko'nikma va malaka hosil qiladi;
- So'z boyligi oshadi;
- O'zini tuta bilish, so'zlash, savol, javob berish, kiyinish madaniyati shakllanadi;
- Qobiliyat rivojlanadi;
- O'zini va boshqalarni nazorat qiladi, boshqara oladi;
- Xotirasi mustahkamlanadi;
- Vazifalarni to'g'ri va aniq anglab oladi;
- O'z oldiga maqsad qo'yadi;
- Maqsad sari izchil harakatlanadi;
- Izlanadi;
- Uyushish va hamkorlikni o'rganadi;
- Fikrlash, dunyoqarash o'sadi;
- Yangilikni tez ilg'aydi;
- Komil inson sifatida rivojlanadi;
- O'zlashtirgan bilimlarini targ'ib etuvchi, kasbiy yo'naltiruvchi barkamol inson sifatida gavdalanadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda, o'zbek tilini takomillashtirishda, barkamol avlod tarbiyasida asosiy vositalardandir. Darhaqiqat, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek: «Zamonaviy o'qituvchi - kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir».

## MUNDARIJA

Ta'limda innovatsion texnologiyalarning o'rni .....	3
"Super lotto" texnologiyasi .....	7
"Yaproqlar raqsi" .....	8
Piramida .....	9
Zanjir .....	10
"Aksini toping" usuli .....	10
"Kabutardan xabar" usuli .....	11
"Muzqaymoq" .....	12
"Grammatika bozori" .....	12
Dars jarayonida harakatli metodlardan foydalanishning samarasi .....	13
"Poyezd" mashqi .....	14
"O'zbekiston mevalari" mashqi .....	14
"Koptok" mashqi .....	15
"Xo'p" mashqi .....	15
"Bayroqcha kimda?" .....	15
"Estafeta" mashqi .....	16
Dars jarayonida AKTdan foydalanish .....	17
<b>XULOSA</b> .....	<b>18</b>

*Uslubiy nashr*

**HAVASXON SHOKIROVA**  
**TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR**

**Muharrir Feruza QUVONOVA**  
**Badiiy muharrir Uyg'un SOLIHOV**  
**Texnik muharrir Surayyo ALIMEDOVA**  
**Kompyuterda sahisalovchi Feruza BOTIROVA**

Bosishga 12.07.2013 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.  
 Bosma tobog'i 0,625. Sharqli bosma tobog'i 1,05.  
 Garnitura -Bookman Cyr+Uzb-. Ofset qog'oz.  
 Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 195.  
 Bahosi kelishilgan narxda.

•Yangi asr avlod• NMMda tayyorlandi.  
 Litsenziya raqami: AI № 198. 2011 yil 28.08 da berilgan.  
 •El-Press• MChJda bosildi.  
 100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 278-30-52; Marketing bo'limi – 128-78-43  
 faks – 273-00-14; e-mail: yangiasravlodi@mail.ru